



XORIYIY MAMLAKATLARDA MINTAQALAR SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ASNOSIDA BIZNES RIVOJLANISHDAGI TAJRIBASI

PhD, dots. **Xusanova Gulchexra**
"Tashkent Perfect University"
ORCID: 0000-0007-5271-4943
gulchexra2000@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada sanoatga innovatsiyani kiritilish va shu asosda ishlab chiqarishni yuqori texnologik jarayonga o'tkazilganligi, o'z navbatida, biznesni rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi, xorijiy mamlakatlar tajribasidan aniq tahlillarga tayangan holda yoritilgan. Sanoatga innovatsiyani jalb etish biznes rivojlanishida qanchalik ahamiyatli ekanligi o'rganildi. Rivojlangan mamlakatlar tajribalari tadqiq etildi. Amerika, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Fransiya mamlakatlarida sanoat va biznesni rivojlanishi uchun qanday innovatsion yo'nalish va yondoshuvlar tadbiriq etilganligi o'rganib chiqildi. Ushbu davlatlarda asosan universitet-biznes va davlat-biznes tamoyili ko'proq qo'llanilgan, ya'ni sanoat va biznesni yangi darajaga olib chiqish uchun universitetlarga innovatsion mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy ishlanmalar, startap loyihalarni taklif etilishi muhim hisoblangan. Bu jarayon hozir ham o'z mavqeyini saqlab qolgan. Shuningdek, mazkur mamlakatlarda davlat biznes subyektlarini kuchli himoya qilgan va rag'batlantirganligi ham sanoat va biznesni yangi darajaga chiqishining eng muhim omili sifatida keltirilgan, amalda ham aynan shunday ekanligini tahlillar ko'rsatmoqda. Biz uchun ham aynan universitet-biznes, davlat-biznes tamoyili sanoat va biznesni rivojlanishida eng muhim omil ekanligini tasdiqladik.

Kalit so'zlar: innovatsiya, biznes, sanoat, davlat, universitet, mexanizm, modernizatsiya, diversifikatsiya, kompleks rivojlanish, hududlar sanoati, forsayt markazi, ilmiy-texnika tajriba-konstruktiv ishlanmalar- ITTKI.

ОПЫТ В СФЕРЕ РАЗВИТИЯ БИЗНЕСА ЗА РУБЕЖОМ В ПЕРИОД ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ ОТРАСЛЕЙ

PhD, доц. **Хусанова Гульчехра**
"Tashkent Perfect University"

Аннотация. В статье на основе анализа опыта зарубежных стран подчеркивается значительное влияние внедрения инноваций в промышленность и переноса производства на высокотехнологичные процессы на этой основе, что, в свою очередь, оказало существенное воздействие на развитие бизнеса. Изучена важность привлечения инноваций в промышленность для развития бизнеса. Представлен опыт развитых стран. Рассмотрены инновационные направления и подходы, применяемые к развитию промышленности и бизнеса в Америке, Германии, Японии, Южной Корее, Китае и Франции. В этих странах в основном использовались принципы «университет-бизнес» и «государство-бизнес», то есть считалось важным предлагать университетам научные разработки и стартап-проекты для производства инновационной продукции с целью выведения промышленности и бизнеса на новый уровень. Этот процесс сохраняет

свою актуальность и по сей день. Также в качестве важнейшего фактора вывода промышленности и бизнеса на новый уровень указывается сильная защита и поощрение государством субъектов предпринимательства в этих странах, и анализ показывает, что именно это и происходит на практике. Для нас стало очевидным, что принцип «университет-бизнес, государство-бизнес» является важнейшим фактором развития промышленности и бизнеса.

Ключевые слова: инновации, бизнес, промышленность, государство, университет, механизм, модернизация, диверсификация, комплексное развитие, региональная промышленность, центр прогнозирования, научно-технический опыт - конструктивные разработки – НИОКР.

EXPERIENCE IN BUSINESS DEVELOPMENT IN FOREIGN COUNTRIES DURING THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF REGIONAL INDUSTRIES

PhD, assoc. prof. **Khusanova Gulchekhra**
Tashkent Perfect University

Abstract. The article highlights the significant impact of the introduction of innovation into industry and the transfer of production to a high-tech process on this basis, which in turn has had a significant impact on business development, based on specific analyses of the experience of foreign countries. The importance of attracting innovation to industry in business development was studied. The experiences of developed countries were presented. What innovative directions and approaches were applied to the development of industry and business in America, Germany, Japan, South Korea, China and France were studied. In these countries, the university-business and state-business principles were mainly used, that is, it was considered important to offer universities scientific developments and startup projects for the production of innovative products in order to bring industry and business to a new level. This process has retained its position even now. Also, the fact that the state strongly protects and encourages business entities in these countries is cited as the most important factor in bringing industry and business to a new level, and analyses show that this is exactly what happens in practice. For us, we have confirmed that the university-business, state-business principle is the most important factor in the development of industry and business.

Keywords: innovation, business, industry, state, university, mechanism, modernization, diversification, integrated development, regional industry, foresight center, scientific and technical experience - constructive developments - R&D.

Kirish.

Dolzarbliigi va zarurati. Jahonda resurslarning keskin darajada cheklanib borishi va globallashuv jarayoni tobora chuqurlashishi sharoitida mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishni innovatsion asosda samarali rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yirik korxonalarning 80% innovatsion faol hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda texnologik innovatsiyalarni amalga oshirayotgan sanoat korxonalari jami sanoat korxonalari ulushida 43,7 foizdan 69,7 foizgachani tashkil etadi". Bugungi kunda jami resurslarni, jumladan mehnat va intellektual resurslarni o'zida jamlagan ob'ektlar - huddalarda sanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish ustuvor darajada dolzarb hisoblanmoqda.

Jahonda sanoat ishlab chiqarishini samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida hududlarni kompleks-innovatsion rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada mintaqalarda sanoatni barqaror rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishning innovatsion faolligini oshirish, hududlarda innovatsion

faoliyatni maqsadli rag'batlantirish, hududlarda yuqori texnologiyali va innovatsion mahsulotlar eksportini ko'paytirish kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, mintaqaning rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha turli mamlakatlarda xilma-xil yo'nalishlar mavjudligiga qaramasdan, ular o'rtasida tafovutlar kam. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdan maqsad esa quyidagi masalalarni hal etishdan iborat:

- iqtisodiy qoloq mintaqa rivojlanishini rag'batlantirish;
- markaziy xokimiyat vazifalarining katta qismini maxalliy davlat organlari zimmasiga yuklash;
- yirik shaharlarda sanoat ishlab chiqarishi cheklash;
- yangi o'zlashtirilgan mintaqada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ularni rivojlantirish.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri mintaqaviy rivojlanish jamg'armalarini tashkil etish hisoblanadi. Bu borada birinchi marta 1975 yilda Yevropa Ittifoqi qoshida mintaqaviy muvofiqlashtirish jamg'armasi tashkil etildi. Yana bir necha mamlakatlarda ham ayrim mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi amalga oshirish maqsadida maxsus jamg'armalar tuzilgan. Bular qatoriga Italiyaning davlat subsidiyalari hisobiga janubiy mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan Janub xazinasini, Bolgariyadagi ayrim mintaqalar rivojlanishini jadallashtirish davlat dasturini ta'minlash bo'yicha, Vengriyada uchta maqsadli jamg'armadan iborat mintaqa rivojlantirishining markaziy jamg'armalarni kiritish mumkin.

Ko'plab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy siyosatining muhim xususiyati shundaki, unda yirik ma'muriy birliklar (shtat, guberniya, provinsiya) emas, balki muayyan shahar va munisipalitet mintaqaviy rivojlanish maqomlari hisoblangandi, jumladan, Fransiyada kam rivojlangan Janubiy-G'arb mintaqalarining 9 aglomeratsiya va 17 shaharini, Italiyada 12 sanoatni rivojlantirish areallari 26 industrizatsiya yadrolari, Germaniyada 300 ta aholi punktlari mavjud.

Bu sohada niderlandiyaliklar va belgiyaliklar tajribasi, ayniqsa diqqatga sazovor. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shahar va qishloqlarni rivojlantirishni rejalashtirish bo'yicha qonun birinchi marta Belgiyada 1915 yilda qabul qilingan. Ko'plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat o'zining ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib turlicha qo'llanilishi mumkin. Xususan, tug'ilishni kamaytirish siyosati nihoyatda qattiq yo'lga qo'yilgan Xitoyda zichlik ko'rsatkichlari past bo'lgan tibbiyot va Uyg'ur-Syangan avtonom okrugi uchun oilada bolalar soni cheklanmagan.

Adabiyotlar sharhi.

Yapon iqtisodchisi Shiroyamaning (2018) "Modern Global Trade and the Asian Regional Economy" nomli monografiyasida hududlar rivojlanishining asosiy drayveri sanoat rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligi yozilgan.

Shuningdek, Armstrong va Taylor (2010) "Regional economics and policy" kitobida hududlarni kompleks-innovatsion rivojlantirishda universitet-biznes tamoyili muhim ekanligini e'tirof etgan.

Sanoat sohasida Porterning (1993) sanoat tarmog'ining rivojlanish darajasi va bozordagi hissasi o'rtasidagi munosabat bo'yicha fikrlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, u sanoat korxonalarining faoliyati va foyda olishida ularning tarmoqdagi rivojlanish darajasi hamda bozordagi hissasi eng asosiy ko'rsatkichlar sifatida qaralmasligi lozim deb hisoblagan. Bunday ko'rsatkichlar ehtimoliy pul oqimlari va moliyaviy vositalarga talabni aniq ko'rsatuvchi ishonchli ko'rsatkichlar emasligi, sanoat korxonalarining samarali faoliyatida raqobat kurashi strategiyasi alohida o'rin egallashini ta'kidlagan.

Sanoat modellariga ko'ra bir necha bosqichdan iboratligi ularning murakkab ichki tuzilmaga egaligini ko'rsatadi. Glazevning (2016) fikricha, asosiy texnologik birliklar texnologik tuzilmaning yadrosini tashkil etadi. Bunday yadrolarni yaratishda ishtirok etuvchi texnologik yangiliklar asosiy omil nomini olgan. Tashuvchi tarmoqlarda yangiliklarning tarqalishi bilan bog'liq harakatlanuvchi sanoat tarmoqlari yuzaga keladi. O'z navbatida, bunday tarmoqlarga asosiy omilni intensiv ravishda iste'mol etuvchi hamda undan foydalanishga eng yaxshi moslashuvchi tarmoqlar kiradi. Ular yangi texnologik ukladlarning yoyilishi hamda ishlab chiqarishni ommaviy yangilab borishida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy kommunikatsiya, robot texnologiyalari, yangi texnologik kashfiyot va boshqalar yangi texnologik uklad omili hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda beshinchi texnologik uklad mahsulotlari YAIMning katta qismini tashkil etmoqda.

Santo (2016) innovatsiyani g'oyalar va kashfiyotlardan amalda foydalanish asosida eng zo'r mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarishga olib keluvchi texnik va iqtisodiy jarayon deb ta'rif bergan holda, innovatsiya iqtisodiy foyda olishga qaratilgan bo'lsa, u holda yangi mahsulotning bozorda paydo bo'lishi va qo'shimcha daromadga olib keladi, deb ta'riflagan.

Rozenberg, Birdsell va Rastvorseva (2020) g'arb mamlakatlari sanoatining iqtisodiy rivojlanishini uzluksiz imkoniyatlarni o'rganish va keyingi o'sishga ijobiy ta'sir etuvchi o'zgarishlarga moslashish innovatsiya orqali amalga oshganligi bilan bog'laydilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida yapon olimi Tomako Shiroyamaning mintaqalarni rivojlantirish, xususan, sanoatni innovatsion rivojlantirish bo'yicha foydalangan va tavsiya etgan usullaridan samarali foydalanildi. Ya'ni mintaqalarni rivojlanishida asosiy e'tiborni sanoatni kompleks-innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va ushbu mexanizm asosida hududlarni barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalriga ahamiyat qaratilgan. Albatta, ma'lum bir mintaqani rivojlanishida eng avvalo mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi, shuningdek sanoat rivojlannishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar chuqur o'rganilishi muhim ekanligi e'tiborga olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiyaning bu sohadagi tajribasi alohida afzalliklarga ega. Aniq masadga yo'naltirilgan uzoq muddatli dasturlar izchil amalga oshirilishi natijasida Yaponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar safidan joy oldi.

Yaponiya mintaqaviy iqtisodiy siyosati er va tabiiy resurslarning cheklanganligidan, kishilar faoliyatini tabiiy sharoit bilan uyg'unlashtirish zaruratidan mamlakat turli mintaqalari aholisining turmushi bo'yicha bir xil sharoit yaratish talabidan kelib chiqadi. Umuman, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish jamiyat va davlat oldida turli maqsad hamda vazifalaridan, ularning miqyosi va amalga oshirish imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Yaponiyada moddiy va moliyaviy resurslar hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kam rivojlangan, "nomarkaz" mintaqalarga jalb etishning tez moslashuvchan va qulay usuli barpo etildi.

Xitoy davlatini uch yirik mintaqaga (Sharqiy, Markaziy va G'arbiy) bo'linishi va undagi provinsiyalarning xar biri mazkur davlatning YAIMda o'zining salmoqli ulushiga ega ekanligi va mazkur uch yirik mintaqaning xo'jaligidagi xilma-xillik ham Xitoy davlatidagi mintaqalarni kompleks rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Sharqiy mintaqaga Markaziy mintaqaga rolini o'ynayshi 10 ta dengizbo'yi provinsiyasi va markazga bo'ysunuvchi uch shahar Pekin, Shanxay va Tyanszin. Bu Xitoyning yirik sanoatlashgan mintaqasi hisoblanadi va aynan mazkur mintaqaga hozirda ham investisiyalar oqimi kelishi yuqori sanaladi.

Sharqiy mintaqaga asosan eksportga yo'naltirilgan mintaqaga aylangan. Bunga yorqin misol sifatida Guanjo provinsiyasini keltirish mumkin. Shanxay ham asosan eksportga

yo'naltirilgan mintaqa hisoblanadi. Tyanszinda esa elektronika, mashinasozlik, kimyo, farmasevtika rivojlangan. Shuningdek, mazkur mintaqada "Airbus" konserning lisensiyasiga muvofiq A-320 rusumli avialaynerlar yig'iladi.

Markaziy mintaqada ham 10 ta povinsiya va markazga bo'ysunuvchi 1 ta shahar Chunsin mavjud. Bu mintaqa Sharqiy mintaqaga nisbatan maydoni katta hisoblansada ammo, aholi soni va sanoatlashganligi jihatdan biroz orqada. Xitoyda mintaqaviy iqtisodiyotga oid siyosat bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- birinchi bosqich 1980-1990 yillarga to'g'ri keladi va ana shu bosqichda Sharqiy mintaqani rivojlantirish ustuvor sanalgan;

- ikkinchi bosqich bu 1990-2000 yillarni o'z ichiga olib, mazkur bosqichda Markaziy mintaqani rivojlantirish nazarda tutiladi;

- uchinchi bosqich esa yigirma birinchi asr boshlariga to'ri keladi. Bu bosqichda G'arbiy mintaqani rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Mintaqaviy rivojlanishni tartibga soluvchi vositalarning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati natijalar doirasida aniqlanadi. Olingan natijalar federal, mintaqaviy va shahar darajasidagi hukumat organlari uchun qiziqish uyg'otadi. Mintaqa rivojlanishini samarali boshqarishni ta'minlaydigan mintaqaviy siyosatni amalga oshirish uchun mintaqalarni rivojlantirishning keng ko'lamli vositalari va usullaridan foydalanish zarur.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, keng innovatsion faollik yirik biznes tomonidan amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yirik korxonalarning 80 % va kichik korxonalarning faqat uchdan bir qismigina innovatsion faol hisoblanadi. Tadqiqot va ishlanmalar uchun YaIMda 56%, AQShda 63%, Yaponiyada 74% ichki xarajatlar hisobiga yo'naltiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda texnologik innovatsiyalarni amalga oshirayotgan sanoat korxonalarining jami sanoat korxonalardagi ulushi 43,7% dan 69,7% gachani tashkil etadi^{29F29F}. Shu sababli mintaqa sanoatini rivojlantirishda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

AQSh ko'p yillar davomida sanoat va innovatsion taraqqiyotning jahondagi etakchisi hisoblanib kelgan. Aynan mintaqaviy nuqtai nazardan sanoat rivojlanishida bu mamlakatning tajribasi katta hisoblanadi. Silikon vodiysi yaqqol misollardan biri hisoblanadi. 1970-yillarda mamlakatda yangi g'oya va texnologiyalarni tarqatishning axborot mexanizmi ishlab chiqarilgan. Bu faoliyat ilmiy-texnik, axborot va federal laboratoriyalar konsorsiumining milliy markazi tomonidan amalga oshirilgan edi. Unda barcha davlat muassasalarining ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha ma'lumotlar yig'ilgan. Bu markazga 300 dan ortiq federal ilmiy markazlar kirgan.^{30F30F}

1980 yillarda kashfiyotlardan foydalanishning yangi sohalarini izlab topish hamda o'z ichki resurslari hisobiga xususiy korxonalar tomonidan modifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatga muvofiq ilmiy tadqiqot bo'limiga ega har bir davlat tuzilmasi boshqa sohalarga texnologiyalarni tatbiq qilish sohasini kengaytirish uchun byudjetining kamida 0,5 % ni sarflashi lozim edi.^{31F31F}

Bundan tashqari AQShda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun hududlarda quyidagi moliyaviy vositalar qo'llandi:

Yirik firmalar uchun soliq imtiyozlari: korxonaning foyda solig'i ilmiy tadqiqotlar uchun oshgan xarajatlarning 20 %iga kamaytiriladi. Bunday xarajatlarning oshganlik hajmi avvalgi uch yildagi o'rtacha darajasiga qiyoslangan holda aniqlanadi.

Universitetlarning korxonalar bilan shartnoma asosida amalga oshirilgan fundamental ilmiy tadqiqot dasturlariga xarajatlar uchun daromad solig'iga 20 % miqdorida imtiyoz kiritilgan.

Ularning aksiyalari realizatsiyasidan tushgan daromadidan soliq stavkasi kamayadi.

Mashina va uskunalar uchun tezlashtirilgan amortizatsiya: amortizatsiya muddati 5 yil etib belgilandi (ITTKIdagi uskunalar uchun 3 yil).

Mintaqa sanoatining innovatsion rivojlanishida – uch spiral (Triple Helix) modelidan keng ma'noda foydalanilgan bo'lib, bu nazariya Stenford universiteti professori amerikalik olim Genri Iskovis tomonidan taklif etilgan. U innovatsion tizimning asosi sifatida universitetlar, korxonalar va davlat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarga urg'u beradi. Shuningdek, mintaqa sanoatini innovatsion rivojlanishida universitetlarning roli etakchilardan biridir deyib hisoblaydi. Bunda – uch spiral modeliy o'z tarkibiga quyidagi asoslarni oladi:

Ilmga asoslangan jamiyatda sanoat va hukumat bilan universitetlarning o'zaro munosabatlarida ularning vazifasini kuchaytirish.

Universitet-biznes-hukumat. Bu uchlikning o'zaro hamkorligiga harakat qilish hamda innovatsion rivojlanish davlatning xohish-irodasiga ko'ra emas, balki uch institutning o'zaro xohishiga ko'ra amalga oshiriladi. An'anaviy vazifalarga qo'shimcha ravishda uch institutning har biri ma'lum bir ma'noda bir-birining vazifalarini ham bajaradi.

Yuqoridagi tadbirlar hududiy nuqtai nazardan amalga oshirildi hamda shtatlar doirasida nazorat qilindi. AQShda mintaqaviy xususiyatga ega hududlar sanoatining innovatsion rivojlanishida universitetlarning ahamiyati alohida o'rin egalladi. Genri Iskovisning fikricha, universitet bu faqatgina ta'lim beruvchi muassasa bo'lmay, yig'ilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etuvchi muassasa hamdir. 1846 yilda Uilyam Barton Rodjers Bergan tomonidan – Universitet-ishlab chiqarish uzoq muddatli munosabatlar g'oyasi bu tadbirning asosiy markaziga aylandi.

Natijada dunyo reytinglarida yuqori o'rinlarni egallagan 150 ta universitet AQSH milliy innovatsion tizimining asosiga aylandi. Braun, Garvard, Yel, Kolumbiya, Pensilvaniya, Priston universitetlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Berkli, Stenford universitetlari, Massachutes texnologik instituti, Viskonsi universiteti yirik ilmiy va ta'lim markazlariga aylandi. Uch spiralni AQShda yaxshi rivojlanishida 1980-yilda Beya Doul (Bayh-Dole Act) hujjati deb nomlangan patent va savdo belgilari bo'yicha qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hujjat bir hudud doirasida universitetlar, kichik biznes sub'yektlari va notijorat tashkilotlariga davlat byudjetidan moliyalashtiriluvchi kashfiyotlarni boshqarish bo'yicha huquq va majburiyatlarni zimmasiga olish imkonini berdi (1-jadval).

Bu model ya'ni texnologiyalarning tijoratlashuvi universitetlarning innovatsion infratuzilmasi va texnologiyalar transferi tizimi rivojlanishida muhim qadam bo'ldi. AUTM (Association of University Technology Managers) amerika assotsiatsiyasining hisob-kitobiga ko'ra, 1991 yildan 2009 yilgacha bo'lgan muddatda AQShda ilmiy tadqiqot ishlarining davlat tomonidan moliyalashtirilish qiymati 588 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1-jadval

Oliy o'quv yurtlari majburiyatlari

1	Grantlar hisobiga moliyalashtirilgan tadqiqotlar bo'yicha amalga oshirilgan har qanday grantlar haqida davlatga ma'lumot berib borish
2	Kashfiyotning nomini aniqlash
3	Kashfiyotlarni patentlashtirish
4	Ishlanmalarni moliyalashtiruvchi tashkilotlar bo'yicha ma'lumot berish
5	Texnologiyalarni tijoratlashtirish bo'yicha faol siyosat olib borish
6	Davlat tashkilotlaridan ruxsatsiz uchinchi shaxslarga kashfiyotlardan foydalanish huquqini bermaslik
7	Kashfiyotlarni birinchi o'rinda sanoat va kichik biznesga sotish

Manba: промышленная политика и поддержка экспорта в США.

Natijada 249 ming kashfiyotlar amalga oshirilib, undan 51 mingtasiga patent olindi. 2009 yilga kelib 38030 ta faol lisenziyalar amalda foydalanilib, 6272 ta startaplar yaratildi, 300000 ta qo'shimcha ishchi o'rinlari yuzaga keldi. Universitetning sanoat bilan o'zaro hamkorlik, sanoat hisobiga tadqiqotlarni moliyalashtirish va texnologiyalarni tijoratlashtirish

ularning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalardan etib belgilandi. Demak, — Uch spiralning muhim eleymenti sifatida mahalliy (hududiy) davlat organlarini universitetlar faoliyatini rivojlantirishda ham, innovatsion korxonalar uchun ijobiy muhitni yaratishda ham faol ishtirok etishini ajratib ko'rsatish mumkin.

AQSH tajribasidan kuzatish mumkinki, mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish uchun davlatning qo'llab-quvvatlashi asosida innovatsion mahsulotlarning tijoratlashuv mexanizmi yaxshi yo'lga qo'yilgani hamda davlat tizimidan etakchi texnologiyalarni xususiy sektorga ikkilamchi foydalanish va tarqatish uchun berilishiga alohida e'tibor qaratish eng asosiy qadamlardan edi.

XX asrning 80-yillarida Germaniyada ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda asosiy e'tibor mintaqalardagi yirik sanoatga qaratildi. Mintaqalar yuqori, o'rta darajadagi innovatsion salohiyatga egaligi bo'yicha ajratildi. 2006 yilda Germaniyada Innovatsion va texnologik taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Strategiyada innovatsiyaga alohida e'tibor qaratilgan holda bitimlarni tashkil etish qarori quyidagi belgilar asosida qabul qilindi: xususiy biznes bir mintaqada joylashgan ITTKIning asosiy qismini moliyalashtirishi lozim, faoliyatning natijasi muhim ijtimoiy ahamiyatga, nihoyat, bitim ishtirokchilari etarli darajada ilmiy va ishlab chiqarish salohiyati hamda sanoat bazasiga ega bo'lishi lozim.

Bu bilan Germaniya tajribasiga ko'ra, sanoat kompleksida asosiy tarmoqlarni uzoq muddatli rivojlanish dasturlari ishlab chiqarilganligi sanoatda innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmi bo'ldi. Agar AQSHda – uch spiral shakllanishi asosi – ikki spiral, ya'ni

- universitet-biznes shaklida shakllangan bo'lsa, Yevropada

bu ikki spiral davlat-biznes g'oyasiga asoslanadi. Germaniyada davlat tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishni qo'lga kiritgan muassasalar quyidagilarni amalga oshirishi majburiy edi:

- tadqiqotlarni amalda qo'llash mumkin bo'lgan iqtisodiy natijalargacha etkazish;
- ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini patentlashtirish;
- investorlarni moliyaviy foyda olishda imkoniyatlarini kengaytirish;
- loyiha natijalarini iqtisodiyotga ikki yil davomida tatbiq etish (aks holda unga bo'lgan

huquqni yo'qotadi).

Katta hajmdagi ishsizlikning ko'payishi mintaqada chuqur depressiyani keltirib chiqardi. Hukumat mintaqada innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishni muammodan chiqish yo'li deb belgiladi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat quyidagi tarkibiy qismlarni ko'zda tutar edi:

- hududda aniq yo'naltirilgan klasterlarni shakllantirish: biotexnologiya, axborot texnologiyalari, kimyo, energiya va resurs tejash manbalarini qayta tiklash;
- kadrlar tayyorlash tizimini qayta shakllantirish, tanlangan etakchi ilm-fan taraqqiyoti yo'nalishlariga muvofiq mutaxassislar nomenklaturasini o'zgartirish;
- ilmiy-texnologik markazlarni shakllantirish, bunday markazlar oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish maqsadida asbob-uskunalar bilan ta'minlangan maydonlarni ajratish.

Klasterlar shakllanishining xalqaro tajribasiga ko'ra, avvalo, mintaqada sanoat zonalarini tashkil etish muhim bo'lib, bu jarayonni faollashtirishda xodimlar salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zaruriyatni talab etadi (9-ilova). Bu esa mintaqada sanoat majmuini rivojlantirishda innovatsion korxonalarni tashkil etish faoliyatini kuchaytiradi.

2-jadval

Xorijiy mamlakatlarning mintaqalarni kompleks-innovatsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Davlat	Bajarilgan ishlar	Natija
AQSh	– tadbirkorlik universitetlari tashkil etildi; – yosh tadqiqotchilarning sanoat korxonalariga ishga joylashishi bo'yicha tabiiy harakati amalga oshirildi; – univyersitet-ishlab chiqarish uzoq muddatli munosabatlar g'oyasi tashkil etildi.	– Massachusetc texnologiya universiteti tashkil etildi; – uch spiral asosida mintaqaning innovatsion rivojlantirilishiga erishildi; – universitetlar tarkibida biznes-markazlar, ilmiy texnologik parklar, biznes inkubatorlar va boshqa innovatsion infratuzilma ob'yektlari tashkil etildi.
Xitoy	– 2006-2020 yillar uchun fan va texnologiyalarni o'rta va uzoq muddatli rivojlantirishning milliy dasturi qabul qilindi; – sanoat korxonalarining innovatsion qobiliyatlarini mustahkamlashga kuchli ta'sir ko'rsatildi.	– yetib oluvchi rivojlanish va imitatsiyadan xususiy innovatsiyalarga, alohida texnologik rivojlanishdan tizimli innovatsiyalarga, alohida ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini takomillashtirishdan umummilliy innovatsiya tizimini yaratishga o'tildi.
Germaniya	– byudjet profisitining asosiy qismi tadqiqot va ishlanmalarga sarflandi; – umumiy byudjetning 20 %i ilm va fanga sarflandi.	– ilmiy natijalarning 2/3 qismi universitetlardan olinib boshladi.
Yaponiya	– texnoparklar shakllandi; – texnopolislarni tashkil etish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirildi; – amortizatsiya foizlari oshirildi; – import bo'yicha imtiyozli soliq tizimi joriy etildi.	– texnopolislar qoloq hududlarda tashkil etildi; – hududiy –Iqtisodiy kyengashning ish boshlashi hamda ular tarkibiga ilmiy tadqiqot institutlari va biznes uyushmalari vakillari kiritilishi mamlakatning innovatsion sohasini yanada rivojlantirdi.
Koreya Respublikasi	– 1962-1966 yillar uchun birinchi besh yillik rejasi qabul qilindi; – eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar qo'llab-quvvatlandi; – chebollar 66 – yirik sanoat birlashmalari yaratildi; – davlatning imtiyozli kreditlari ajratildi; – hududlarida davlatning to'g'ridan-to'g'ri yordam ko'rsatilishi kuchaytirildi.	– to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobilsozlik, kemasozlik, elektronika, kimyo sanoati sohalari innovatsion rivojlandi; – biotexnologik sanoat tarmoqlari jadal sur'atda rivojlandi; – kemasozlik, elektronika va boshqa sanoat tarmoqlari bo'yicha erkin iqtisodiy hududlar yaratildi.
Fransiya	– ishlab chiqarish va ilm-fanni rivojlantirish infratuzilmasi isloh etildi; – mintaqalar xususiyatiga ko'ra, maxsus mintaqaviy strategiyalar ishlab chiqildi; – davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish rivojlanishida rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi kuch sifatida ishtirok etdi; – yangi sanoat tarmog'ini ishga tushiruvchilarga jalb etilgan kapitallarni 25 % miqdorida subsidiya berildi; – qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqalarda esa ishchilari 10 kishidan ko'p bo'lgan og'ir sanoat korxonalariga, eksport hajmi	– bunda davlat mineral xom ashyo resurslaridan kelib chiqib, mintaqalarda ilmtalab ilg'or sanoat tarmoqlarini shakllantirdi; – ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etildi; – unversitet laboratoriyalari rivojlantirildi; – ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ITTKIning natijalarini mustaqil tijoratlashtirish samarali amaliyot bo'ldi; – yuqori texnologik sanoat korxonalari rivojlanishi natijasida raqobatbardoshlik qutblari tashkil

Manba: muallif ishlanmasi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko'ra, sanoat innovatsion rivojlanishining asosi sifatida davlat tomonidan rag'batlantirishning turli vositalari xizmat qildi:

- mintaqa sanoatining innovatsion ko'rinishda shakllanishining yagona yondashuvi mavjud emas, lekin mintaqaviy sanoat kompleksini innovatsion shaklda rivojlantirishda an'anaviy sanoat tarmoqlarini ko'p tarmoqli innovatsion shaklga o'tishiga turtki bo'luvchi innovatsion markazlar tashkil etilgan; innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va mintaqaning innovatsion salohiyatida faol ishtirok etuvchi korxonalarga soliq va boshqa imtiyozlar mavjud;

- jahon tajribasi sanoat kompleksi innovatsion rivojlanishining yadrosi ekanligi hamda butun iqtisodiyot rivojlanishining asosi ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun birinchi o'rinda mintaqada yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish jarayonini faollashtirish uchun muhit yaratilishi zarur edi. Ko'pgina davlatlarda innovatsion faollikning oshishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshdi;

- sanoat kompleksining innovatsion jarayonini davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash natijasida faollashdi. To'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish, grantlar ajratish hamda turli subsidiyalarni berish, davlat buyurtmalari hamda xaridlari hisobiga amalga oshirildi;

- ko'rib o'tilgan barcha mamlakatlarda yuqori texnologiyalar transferti jarayonlarini faollashtirish, ilmiy markazlar, OTM va xususiy korxonalar o'rtasida integratsiyalarni rag'batlantirish tizimini yaratish muhim bo'lmoqda;

- innovatsion faollik hududiy innovatsion infratuzilmalarni tatbiq etish yo'li bilan tashkil. Ishlab chiqarish samarasini oshirish bir mintaqa doirasida qazib oluvchi korxonadan boshlab to xaridorga mahsulotni etkazib beruvchi korxona o'rtasidagi bog'liqlikkacha shakllanishini ko'zda tutdi;

- jahon tajribasi ITTKIga yo'naltirilgan xarajatlarning YaIM (YaHM)dagi hissasini 3 %ga, investisiya hajmini 30 %ga etkazish, yoshlarning kamida 60 %i bakalavr darajasini olishiga erishish hamda ITTKIlarini davlat tomonidan moliyalashtirish innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim ijobiy samarani ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar.

1. Mintaqa sanoatini rivojlantirishda uzoq va o'rta muddatli rivojlanish strategiyasiga bo'lgan talabni keskin oshganligini ta'kidlab o'tish lozim. Buning asosida makroiqtisodiy barqarorlikka erishilganlik, iqtisodiyotni boshqarishda operativ usullardan kelajakni prognozlashtirishga o'tish uchun shart-sharoitlarni yaratilganligi yotadi.

2. Mintaqa iqtisodiy tizimi-bu murakkab tizim turlaridan biri hisoblanuvchi, ma'lum iqtisodiy makon o'lchamlariga ega tizimdir.

Mintaqa iqtisodiy tizmi strukturasi aniq o'ziga xos xususiyatlari iqtisodiy tizim osti funksiyalari bilan aniqlanadi, ya'ni ularning turi, mehnat taqsimotidagi ishtiroki darajasi, ixtioslashuvi, ularni atrofdagi tabiiy muhitga ta'sir etishi bilan belgilanadi. Mintaqa iqtisodiy tizimi evolyusion jarayoni integral sub'yekti sifatida o'z manfaatlarini ta'minlaydi. Mahsulot ishlab chiqarish, almashish, 'aqsimlash va iste'mol qilish hamda o'z rivojlanishni tartibga solish qobiliyatiga ega.

3. Innovatsiyalar bu yangi bilimlar,—texnologiyalarni o'zlashtirish esa bu korxonalar uchun yangi natijadir. ITTKIlar va innovatsion faoliyat jarayonlarini birgalikda amalga oshirgan holda motivatsiya tizimini yo'lga qo'yish va sinergiya samarasi asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng afzal yo'lidir.

4. Xorij tajribasiga ko'ra, davlat tomonidan korxonalarga turli imtiyozlar, jumladan soliq imtiyozlari berilishi innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatga (mintaqaga) yangi investorlarni jalb etishga olib keluvchi eng samarali vositalardan biridir.

5. Ko'pgina davlatlarning tajribasi hududlarning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida sanoat tarmog'ini alohida ahamiyatga egaligi, shuningdek, bu tarmoqni rivojlanishida innovatsiyalarning o'rni muhimligini ko'rsatdi. Sanoat, ta'lim muassasalari va davlat o'rtasidagi

o'zaro hamkorlik bu yo'nalishda muhim ekanligi aniqlandi (Xitoy, Fransiya, Yaponiya, AQSH , Germaniya va hokazo).

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Armstrong, M. and Taylor, J. (2010). *Regional Economics and Policy*. 3rd ed. Wiley-Blackwell, 448 p.

Glazev, S. (2016). *Ot rynochnogo fundamentalizma k konvergentnoy modeli*. In: Tsagolov (ed.), *Novoye integralnoye obshchestvo*. Moscow: LENAND.

Porter, M. (1993). *Mezhdunarodnaya konkurentsia*. Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya, 896 p.

Rozenberg, N., Birdsell, L. and Rastvorseva, S. (2020). *Innovatsionnyy put': izmereniye trayektorii razvitiya ekonomiki regiona*. Moscow, pp. 28–42.

Santo, B. (2016). *The Old Industrial Regions of Kazakhstan. Analytical review*. Pavlodar: InEU, 192 p.

Shiroyama, T. (2018). *Modern Global Trade and the Asian Regional Economy*. Monograph Series of the Socio-Economic History Society. Japan.

Xusanova, G. (2024). *Hududlar sanoatini kompleks innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari*. Monografiya. Toshkent.

Xusanova, G. (2024). *Hududlar sanoatini kompleks-innovatsion rivojlantirish mexanizmi (Namangan viloyati misolida)*. Qo'qon universiteti.